

**Yurisprudensiya sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi (professional ta'limi darajasida yurisprudensiya sohasida o'z fikrini bayon qilish va tahlil qilish ko'nikmalarining mavjudligi)**

<b>T/r</b>	<b>Savollar</b>
<b>Fuqarolik huquqi</b>	
1.	Fuqarolik qonun hujjatlari nimalarga asoslanadi, ular bilan qanday munosabatlar tartibga solinadi?
2.	Qaysi hollarda fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda analogiya (o'xshashlik) qo'llaniladi?
3.	Fuqarolik huquq va burchlari vujudga kelishining qanday asoslari mavjud?
4.	Fuqaroning huquq va muomala layoqati. Uning vujudga kelishi. Fuqaroni muomalaga layoqatsiz deb topishga sabab bo'lgan asoslar.
5.	Fuqaroning bedarak yo'qolgan deb topilishi va uning oqibatlari qanday?
6.	Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish va buning oqibatlari.
7.	Yuridik shaxs tushunchasi va turlari. Yuridik shaxsning huquq layoqati.
8.	Mas'uliyati cheklangan jamiyat nima? Bu turdagi jamiyat eng kami va ko'pi bilan necha shaxs tomonidan ta'sis etiladi?
9.	Aksiyadorlik jamiyatlari, ularning ustav fondi.
10.	Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlar ishtirokchisi sifatidagi roli.
11.	Fuqarolik huquqlari obyektlari nimalardan iborat?
12.	Qimmatli qog'ozlar deganda nima tushuniladi? Qimmatli qog'ozlarga nimalar kiradi?
13.	Vindikatsiya deganda nimani tushunasiz? Mol-mulkni insofli egallovchidan talab qilib olish tartibi.
14.	Bitimlar tushunchasiga ta'rif bering. Bitimlarning qanday turlari mavjud? Shartnoma bilan bitimning farqi nimada?
15.	Bitim qanday shakllarga bo'linadi?

16.	Emansipatsiya nima? O‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar tomonidan bitimlarni tuzish shartlari.
17.	Ishonchnoma tushunchasi va uning shakli. Qanday ishonchnomalar notarial tasdiqlangan ishonchnomalarga tenglashtirilgan ishonchnomalar hisoblanadi?
18.	Ishonchnomaning muddatlari haqida nimalar bilasiz? Ishonchnomaning amal qilishi qaysi hollarda bekor bo‘ladi?
19.	O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan muddatlar belgilash, vaqt davri bilan belgilangan muddatning boshlanishi va tugashi.
20.	Da’vo muddati tushunchasi va turlari. Da’vo muddatining o‘ta boshlashi qaysi hollarda to‘xtatiladi?
21.	Mulk huquqi tushunchasi. Mulk huquqi subyektlari va obyektlari haqida gapirib bering.
22.	Mulkning daxlsizligi nima?
23.	Mulk huquqi qanday shartlar asosida amalga oshiriladi?
24.	Mulk huquqini vujudga kelish va bekor bo‘lish asoslari. Egasiz ashyo deganda nimani tushunasiz?
25.	Umumiy mulk tushunchasi va uning vujudga kelish asoslari nimalardan iborat?
26.	Majburiyat tushunchasi. Majburiyatni bajarish muddati. Majburiyatning bajarilishi qanday usullar bilan ta’minlanishi mumkin?
27.	Garov deganda nimani tushunasiz? Garov narsasi sifatida nimalar muomalada bo‘lishi mumkin? Garovning qanday turlari mavjud?
28.	Undiruvni garovga qo‘yilgan mol-mulkka qaratishning asoslari va tartibi. Garovga qo‘yilgan mol-mulkni sotish tartibi.
29.	Kafillik shartnomasi nima? Kafillik shartnomasiga asosan kafilning qanday javobgarligi bor?
30.	Majburiyatda subsidiar javobgarlik nima?
31.	Majburiyatni buzganlik uchun javobgarlik asoslarini tushuntirib bering?
32.	Shartnoma tushunchasini izohlab bering. Shartnoma tuzish erkinligi deganda nima nazarda tutilgan?

33.	Oldi-sotdi shartnomasi tushunchasi, huquqiy belgilari haqida fikr bildiring.
34.	Mahsulot yetkazib berish tushunchasi va huquqiy belgilari nimalardan iborat?
35.	Hadya shartnomasi. Hadyani bekor qilish mumkin bo'lgan holatlar haqida fikr yuriting.
36.	Mulk ijarasining obyektlari va ularni tasarruf etish tartibi qanday?
37.	Uy-joyni ijaraga berish shartnomasi, muddati va bekor qilish tartibi to'g'risida fikr bildiring.
38.	Pudrat shartnomasi tushunchasi va turlari haqida nimalarni bilasiz?
39.	Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi tushunchasi va huquqiy belgilari nimalardan iborat?
40.	Qarz va kredit shartnomalari. Ushbu shartnomalarning shakliga nisbatan qanday talablar qo'yilgan?
41.	Omonat saqlash shartnomasi tushunchasi, obyekti va muddatlari haqida gapiring.
42.	Intellektual mulk obyektlari va ularni huquqiy muhofaza qilish haqida nimalarni bilasiz?
43.	Meros huquqi va uning o'ziga xos belgilari to'g'risida qanday qoidalar mavjud?
44.	Vorislik huquqi tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
45.	Vorislik asoslari nimalardan iborat?
46.	Merosning ochilish vaqti va joyi deganda nimani tushunasiz?
47.	Vasiyat bo'yicha vorislik tushunchasi, vasiyatnomaning o'ziga xos xususiyatlari va shakli to'g'risida fikr yuriting.
48.	Merosni qabul qilish qanday amalga oshiriladi?
49.	Merosning taqsimlanishi haqida nimalarni bilasiz?
50.	Meros mulkni egasiz deb topish qanday amalga oshiriladi?
<b>Fuqarolik protsessual huquqi</b>	

1.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ishlarni ko'rishda sud tarkibi e'lon qilinadi. Sud tarkibi deganda nimani tushunasiz? Ishni ko'rishni boshlagan sudya ta'tilga chiqqanida sud ishining taqdiri nima bo'ladi?
2.	Fuqarolik protsessual muomala layoqati deganda nimani tushunasiz? Muomalaga layoqatsiz shaxs tomonidan ariza berilishining oqibatlari.
3.	Fuqarolik sud ishlarini yuritish bilan bog'liq sud xarajatlarini taqsimlash tartibini tushuntiring. Savdo-sanoat palatasi boshqa shaxsning nomidan sudga ariza kiritisa va mazkur da'vo ishi bo'yicha da'voni qanoatlantirish sud tomonidan rad qilinsa, sud xarajatlarning taqdiri qanday hal qilinadi? Xuddi shu vaziyatda prokuror tomonidan ariza kiritilgan taqdirda sud xarajatlari masalasi qanday hal qilinadi?
4.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ashyoviy dalillarni saqlash va qaytarib berish tartibini tushuntiring.
5.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda shartnoma bo'yicha (ixtiyoriy) vakillik deganda nima tushuniladi?
6.	Da'vogarning tanlovi bo'yicha sudlovga tegishlilik qoidalarini tushuntiring.
7.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda birgalikda ishtirok etish.
8.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda huquqiy vorislik.
9.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda tez buziladigan ashyoviy dalillarni ko'zdan kechirish tartibini tushuntiring.
10.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda qo'shimcha va qayta ekspertizaning farqini tushuntiring.
11.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda isbotlashdan ozod qilish holatlari qaysilar?
12.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sud muhokamasining oshkoraligi deganda nima tushuniladi?
13.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda fuqarolik ishi deganda nima tushuniladi?
14.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda ishni ko'rishda sudyaning takror ishtirok etishiga yo'l qo'yilmasligini tushuntiring.
15.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda sudya, prokuror, ekspert, mutaxassis, tarjimon va sud majlisi kotibini rad qilish asoslarini tushuntiring.
16.	Sudga murojaat qilish shaklini tushuntiring.

17.	Fuqarolik sud hujjatlari turlarini ayting.
18.	Sud ishlari yuritiladigan til prinsipini tushuntiring.
19.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga qanday ishlar taalluqli.
20.	Fuqarolik protsessi ishida ishtirok etuvchi shaxslar kimlar?
21.	Sud xarajatlari tushunchasi va uning turlarini tahlil qiling.
22.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda qanday da'voni ta'minlash choralari ko'riladi?
23.	Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual muddatlarni o'tkazib yuborishning oqibatlarini tushuntiring.
24.	Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda sud buyrug'i qaysi talablar bo'yicha beriladi?
25.	Sud buyrug'i berish tartibi va muddati, mazmunini tushuntiring.
26.	Sud buyrug'ining sud hal qiluv qaroridan qanday farqli jihatlari mavjud?
27.	Sudyaning ish yuritishni to'xtatib turish majburiyati va huquqini, shuningdek uning huquqiy oqibatlarini tushuntiring.
28.	Arizani ko'rmasdan qoldirish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlarini tushuntiring.
29.	Ish yuritishni tugatish asoslari, tartibi va huquqiy oqibatlarini tahlil qiling.
30.	Arizani ish yuritishga qabul qilishni rad etish asoslari va huquqiy oqibatini tushuntiring.
31.	Arizani qaytarish asoslari va uning huquqiy oqibatlarini tahlil qiling.
32.	Ishni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalari va muddatlarini aniqlang.
33.	Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish muddatlarini aniqlang.
34.	Sud qaysi hollarda ish muhokamasini keyinga qoldirishi mumkin?
35.	Sirtidan ish yuritish asoslari va tartibini tushuntiring.

36.	Apellatsiya shikoyatlarini (protestlarini) ko'rib chiqadigan sudlarga to'xtalib o'ting.
37.	Birinchi instansiya sudi hal qiluv qarorini apellyatsiya tartibida bekor qilish uchun asoslar.
38.	Apellyatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) huquqi kimlarga tegishli?
39.	Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rishning protsessual tartibi qanday?
40.	Apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlarini tushuntiring.
41.	Apellatsiya instansiyasi sudining ajrimida nimalar ko'rsatiladi?
42.	Birinchi instansiya sudi ajrimlari ustidan xususiy shikoyat berish va protest keltirish tartibi va muddati qancha?
43.	Kassatsiya shikoyatini (protestini) ko'radigan sudga to'xtalib o'ting.
44.	Kassatsiya shikoyati (protesti) berish tartibi va muddatini tushuntiring.
45.	Kassatsiya shikoyati (protesti)ning mazmunini tushuntiring.
46.	Kassatsiya tartibida keltirilgan protestlarni ko'rib hal qilishning protsessual tartibini tushuntiring.
47.	Kassatsiya instansiyasi sudining vakolatlarini tushuntiring.
48.	Kassatsiya instansiyasi sudining ajrimiga to'xtalib o'ting.
49.	Apellatsiya shikoyatini (protestini) ko'rish muddatiga to'xtalib o'ting.
50.	Ijro varaqasi berish tartibini tushuntiring.
<b>Mehnat huquqi</b>	
1.	Kimlar ish beruvchilar bo'lishi mumkin?
2.	Mehnatga oid munosabatlarda kamsitishning taqiqlanishini tushuntirib bering.
3.	Mehnatga oid munosabatlarni qonunchilik orqali va shartnomalar asosida tartibga solishning o'zaro bog'liqligini tushuntirib bering.

4.	Qanday ishlar majburiy mehnat deb hisoblanmaydi?
5.	Xodimlar vakillik organlari a'zolarining mehnat sohasidagi qo'shimcha kafolatlari haqida ma'lumot bering.
6.	Ijtimoiy sherikchilik nima va ijtimoiy sherikchilikning qanday turlari mavjud?
7.	Ijtimoiy sherikchilikning turlari uni qanday darajalarda amalga oshirilishiga qarab tasniflangan?
8.	Jamoa shartnomasi va jamoa kelishuvlari nima, ularning farqini bilasizmi?
9.	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari deganda kimlar nazarda tutiladi?
10.	Ishsizlik tushunchasining ta'rifi qaysi qonunchilik hujjatida berilgan va shu ta'rifni keltiring?
11.	O'zini o'zi band qilgan shaxs deganda kimlarni tushunasiz va bunday maqomni olish qanday amalga oshiriladi?
12.	Mehnat shartnomasining tushunchasi va taraflari haqida ma'lumot bering.
13.	Mehnat shartnomasining shakli va muddatiga to'xtaling.
14.	Ishga qabul qilishga yo'l qo'yiladigan yoshga to'xtaling.
15.	Ishga qabul qilish vaqtida talab qilinadigan hujjatlarni sanang.
16.	Mehnat shartlari, ularni belgilash va o'zgartirishning umumiy tartibi haqida ma'lumot bering.
17.	Mehnat shartnomasini bekor qilishning umumiy asoslarini tahlil qiling.
18.	Mehnat shartnomasi uning o'zida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra bekor qilinishi holatini tahlil qiling.
19.	Korxonada mulkdori almashgan, korxonada qayta tashkil etilgan, idoraviy bo'ysunuvi o'zgargan hollarda mehnat shartnomasi amal qilishining davom etishi holatini tahlil qiling.
20.	Xodim muddati tugagunga qadar muddatli mehnat shartnomasini o'z tashabbusi bilan bekor qilishi mumkinmi?
21.	Mehnat shartnomasini xodimning o'z mehnat vazifalarini bir marta qo'pol ravishda buzganligi sababli bekor qilish tartibini tushuntirib bering.

<b>22.</b>	Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilishni kasaba uyushmasi qo‘mitasi yoki xodimlarning boshqa vakillik organi bilan kelishib olish tartibini tushuntirib bering.
<b>23.</b>	Mehnat shartnomasini ish beruvchining tashabbusi bilan bekor qilish to‘g‘risida ogohlantirish muddatlari haqida ma’lumot bering.
<b>24.</b>	Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o‘zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ishlar xususiyatining o‘zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarishi munosabati bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishda qoldirish uchun beriladigan imtiyozli huquq haqida ma’lumot bering.
<b>25.</b>	Muddatli mehnat shartnomasini muddati tugashi munosabati bilan bekor qilish tartibini tushuntirib bering.
<b>26.</b>	Mehnat shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 106-moddasining 6-bandiga (qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda) asosan bekor qilinishini tushuntirib bering.
<b>27.</b>	Safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatga ketgan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasining taqdiri nima bo‘ladi?
<b>28.</b>	Mehnat shartnomasi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 106-moddasining 4-bandiga (ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar buzilganligi munosabati bilan, agar yo‘l qo‘yilgan qoidabuzarlikni bartaraf etishning imkoni bo‘lmasa va u ishni davom ettirishga to‘sqinlik qilsa) asosan bekor qilinishiga ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar buzilganligi hollarini tushuntirib bering.
<b>29.</b>	O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 106-moddasining 2-bandi (shu ishni ilgari bajarib kelgan xodim ishga tiklangan taqdirda) bo‘yicha mehnat shartnomasini bekor qilishga qanday hollarda yo‘l qo‘yiladi?
<b>30.</b>	Ishdan chetlashtirish tartibini tushuntirib bering.
<b>31.</b>	To‘liqsiz ish vaqti haqida ma’lumot bering.
<b>32.</b>	Ish vaqti tushunchasi va uning normal muddati haqida ma’lumot bering.
<b>33.</b>	Ish vaqtidan tashqari ish tushunchasiga to‘xtaling.
<b>34.</b>	Dam olish va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishga jalb etishning cheklanishi haqida ma’lumot bering.
<b>35.</b>	Yillik mehnat ta’tillari haqida ma’lumot bering.
<b>36.</b>	Foydalanilmagan ta’tillar uchun pullik kompensatsiya to‘lash haqida ma’lumot bering



37.	Bir necha kasbda (lavozimda) ishlaganlik, o‘rindoshlik asosida ishlaganlik uchun, xizmat ko‘rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi uchun xodimlarning mehnat haqi miqdori mehnat shartnomasi taraflari o‘rtasidagi kelishuvga ko‘ra belgilanishi O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi 160-moddasida belgilangan. O‘rindoshlar mehnatiga haq to‘lash tizimini tahlil eting.
38.	Umumiy qoidaga ko‘ra, xodimning yozma roziligi bilan, bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda esa — sudning qaroriga asosan mehnat haqidan ushlab qolinishi mumkin. Xodimning roziligisiz, ish beruvchining buyrug‘i bilan xodimning mehnat haqidan ushlab qolish asoslari va shartlarini muhokama qiling.
39.	Muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to‘liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonunchilik hujjatlarida Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi bo‘yicha belgilangan miqdordan oz bo‘lishi mumkin emas. Mehnatga haq to‘lash yagona tarif setkasini huquqiy tahlil qiling.
40.	Ish vaqtdan tashqari ishlar hamda dam olish kunlari va bayram kunlaridagi ishlar uchun haq to‘lash tartibini tushuntirib bering.
41.	Intizomiy jazolar turlari haqida ma’lumot bering.
42.	Intizomiy jazolarni qo‘llanish tartibi.
43.	Intizomiy jazoning amal qilish muddati.
44.	Ish beruvchining xodim sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni to‘lash majburiyati.
45.	Boquvchining vafot etganligi munosabati bilan zararni ish beruvchi tomonidan to‘lash majburiyati.
46.	Ish beruvchi mehnat shartnomasi tuzish chog‘ida dastlabki tarzda va keyinchalik vaqti-vaqti bilan qaysi toifadagi xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni tashkil qilishi shart?
47.	Yakka mehnat nizolarining taraflari va mazmuni haqida ma’lumot bering.
48.	Yakka mehnat nizolarini ko‘rib chiquvchi organlarni sanab bering.
49.	Yakka mehnat nizolarini komissiyada ko‘rib chiqish tartibini tushuntirib bering.
50.	Kimlar mehnat nizosini ko‘rish haqidagi ariza bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega?
<b>Jinoyat huquqi</b>	

1.	Jinoyat huquqining prinsiplar tizimini tavsiflab bering.
2.	Moddiy tarkibli, formal tarkibli va keskin tarkibli jinoyatlarni ta'riflab bering.
3.	“Jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi” tushunchasini yoritib bering.
4.	Jinoyat tushunchasini hamda uning belgilarini yoritib bering.
5.	Jinoyatlar o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
6.	Jinoyat tarkibining qanday elementlari mavjud?
7.	Jinoyat obyekti nima?
8.	Jinoyat predmeti va jinoyatni sodir etishning qurollari va vositalari o'rtasidagi farq nimadan iborat?
9.	Jinoyat obyektining turlarini ayting.
10.	Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining fakultativ belgilarini ta'riflab bering.
11.	Jinoiy oqibatlar nima? Ularning jinoiy-huquqiy mohiyati qanday?
12.	Jinoyat sodir etish quroli jinoyat sodir qilish vositasidan nima bilan farqlanadi?
13.	Qasdning qanday turlari mavjud? To'g'ri qasdning egri qasddan qanday farqlari mavjud?
14.	Ayb jinoyat subyektiv tomonida qanday o'rin tutadi va uning qanday turlari mavjud?
15.	Ehtiyotsizlik o'zida nimani ifodalaydi va uning turlari qanday?
16.	Jinoyat sodir etgan voyaga yetmagan shaxsning yoshini tasdiqlovchi hujjatlar yo'qligi tufayli uning yoshi noma'lum bo'lgan hollarda mazkur shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish masalasi qanday hal qilinadi?
17.	Aqli norasolikning yuridik (psixologik) mezoni nimadan iborat?
18.	Jinoyatni sodir etishdan ixtiyoriy qaytish deganda nima tushuniladi?

<b>19.</b>	Javobgarlik kelib chiqadigan yoshga to'lmagan, aqli noraso yoki aybsiz holda harakat qilgan shaxs bilan ishtirokchilik vujudga kelishi mumkinmi?
<b>20.</b>	Qanday turdagi jinoiy qilmishlar bir qancha jinoyatlarni tashkil qiladi?
<b>21.</b>	Zaruriy mudofaa hamda oxirgi zarurat o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.
<b>22.</b>	Qaysi shartlarda buyruq yoki boshqa farmoyishni bajarish jinoiylikni istisno qiluvchi holat deb tan olinadi?
<b>23.</b>	Jarima tarzidagi jinoiy jazo nimadan iborat? Jarima shaklidagi jazoni ijro etmaslik oqibatlari qanday?
<b>24.</b>	Yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shartlari qanday?
<b>25.</b>	Jazodan ozod qilishning qanday turlari mavjud?
<b>26.</b>	Shartli hukm qilishning mazmuni nimada? Uni qo'llashning asoslari qanday?
<b>27.</b>	Sudlanganlik holatining tugallanishini aytib bering.
<b>28.</b>	Voyaga yetmaganlar uchun jazo tizimi jazoning qanday turlarini nazarda tutadi?
<b>29.</b>	18 yoshgacha bo'lgan yoshda sodir etgan jinoyati uchun sudlangan shaxsga jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning qanday xususiyatlari mavjud?
<b>30.</b>	Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining turlarini sanab bering.
<b>31.</b>	O'zlashtirish hamda rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.
<b>32.</b>	O'g'irlik jinoyatida javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni muhokama qiling.
<b>33.</b>	Bosqinchilik hamda talonchilik o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat?
<b>34.</b>	Voyaga yetmaganlarga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qaysi muddatlarga tayinlanadi?
<b>35.</b>	Pora olishning jinoyat-huquqiy jihatlarini tahlil qiling.
<b>36.</b>	Qaysi holatlarda aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganida javobgarlikdan ozod qilinadi?

37.	Jinoiy jazoning maqsadi nimalardan iborat?
38.	Ehtiyotsizlik orqasidan odam o'ldirishning qasddan odam o'ldirishdan farqi nimada?
39.	O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 97-moddasi 2-qismining "v" bandida berilgan jabrlanuvchining ojiz ahvoli deganda nima tushuniladi?
40.	Bezorilik uchun javobgarlikning og'irlashtiruvchi holatlari nimalardan iborat?
41.	Transport vositalari harakati yoki ulardan foydalanish xavfsizligi qoidalarini buzishning jinoyat-huquqiy jihatlarini tahlil qiling.
42.	Nomusga tegish jinoyatidagi "zo'rlik ishlatish" hamda "qo'rqitish" harakatlarini tushuntiring hamda ularning farqlarini aniq ko'rsatib bering.
43.	O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi va tegishli Oliy sud Plenumi qaroriga asoslanib, ta'magirlik niyatida (JK 97-moddasi ikkinchi qismining "i" bandi) qasddan odam o'ldirish jinoyatining o'ziga xos xususiyatlarini muhokama eting.
44.	Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikka tortish asoslarini hamda mazkur jinoyat predmetlarini yoritib bering.
45.	Firibgarlikning jinoyat-huquqiy belgilarini tahlil qiling.
46.	Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning tartibini yoriting.
47.	Axloq tuzatish ishlari jazosini yoritib bering.
48.	Jinoyatga suiqasd qilishning qanday turlari mavjud va uning obyektiv hamda subyektiv mezon (belgilari)ni ayting?
49.	Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik doirasi haqida gapiring.
50.	Jinoiy jazolar tizimini sanab bering.
<b>Jinoyat-protsessual huquqi</b>	
1.	Sud muhokamasida taraflar muzokarasining mazmuni va tartibini tushuntiring.
2.	Ayblov xulosasi nima?

3.	Eksperiment tergov harakatini o'tkazish tartibi va unga qo'yilgan talablar nimalardan iborat?
4.	Pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish qay tartibda amalga oshiriladi?
5.	Ekspertizaning tekshirish obyektlariga nimalar kiradi? Ularga yana nimalarni kirita olasiz?
6.	Telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish tartibini yoritib bering.
7.	Dastlabki tergovni to'xtatish asoslari va tartibini tushuntiring.
8.	Ushlab turish asoslari va tartibini tushuntiring.
9.	Odil sudlovning faqat sud tomonidan amalga oshirilishi prinsipi mazmunini misollar bilan tushuntiring.
10.	Jinoyat ishlarini hay'atda va yakka tartibda ko'rib chiqish tartibini bayon qiling.
11.	Sudyalarning mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
12.	Qanday toifadagi ishlar yopiq tarzda ko'riladi?
13.	Aybsizlik prezumpsiyasi deganda nima tushunasiz?
14.	Jinoyat protsessida bosqichlar va ularga xos xususiyatlar haqida fikr yuriting.
15.	Jinoyat-protsessual huquqi manbalari? Jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining vazifalari nimalardan iborat?
16.	Jinoyat-protsessual funksiyalarini tushunchasi va ularni tasniflanishi.
17.	Jinoyat ishini qo'zg'atish sabablari va asoslarini bayon eting.
18.	Jinoyat to'g'risida ariza va xabarlarga qo'yilgan talablar qanday?
19.	Jinoyatga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqish natijasida qabul qilinadigan qarorlar haqida fikr yuriting.
20.	Jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish asoslarini bayon eting.
21.	Qamoqqa olish ehtiyot chorasini qo'llash asoslarini bayon qiling.

22.	Jinoyat ishini qo‘zg‘atishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati qanday amalga oshiriladi?
23.	Alohida toifadagi jinoyat ishlariga qaysilar kiradi?
24.	Voyaga yetmagan shaxslarning jinoyatlari haqidagi ishlarda kimlar ishtiroki shart?
25.	Voyaga yetmagan shaxsni so‘roq qilish yoki uning ishtirokida boshqa tergov harakatlarini amalga oshirishda kimlar ishtirok etishi lozim?
26.	Ayblash va hukm qilish uchun asoslarni tushuntirib bering?
27.	Isbot qilish ishtirokchilariga kimlar kiradi?
28.	Protsessual qonunchilikda belgilangan qoidalarga ko‘ra isbot qilishda nimalar taqiqlanadi?
29.	Dalillarning maqbul emasligi deganda nimani tushunasiz?
30.	Guvoh va jabrlanuvchi tariqasida so‘roq qilinishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga kimlar kiradi?
31.	Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish tartibi va asoslarini tushuntirib bering?
32.	Sud hukmining qonuniyligini, asosligini, adolatligini tekshirish qaysi instansiyasida amalga oshiriladi? Apellatsiya tartibida shikoyat (protest) berish muddatini ko‘rsating.
33.	Jinoyat protsessida qanday fuqaroviy da’volar ko‘riladi?
34.	Qisman rehabilitatsiya etishning asoslarini tushuntiring.
35.	Apellatsiya instansiyasi sudining vakolatlari haqida gapirib bering.
36.	Jinoyat ishini kassatsiya tartibida ko‘rib chiqish asoslarini sanab bering.
37.	Kassatsiya shikoyatini, protestini berish tartibi va muddatlari haqida gapirib bering.
38.	Kassatsiya instansiyasi sudida jinoyat ishini ko‘rib chiqish tartibi haqida nimani bilasiz?
39.	Tibbiy yo‘sindagi majburlov chorasini tugatish yoki o‘zgartirish tartibi haqida fikr yuriting.

40.	Jinoyat ishi bo'yicha yarashuv tartibi va talablari qanday?
41.	Aybg'a iqrорlik to'g'risidagi kelishuvning mazmunini yoriting.
42.	Tergovga qadar o'tkazilgan tekshiruv materiallarini yoki jinoyat ishini surishtiruvchi, tergovchi tomonidan prokurorga yuborish tartibi qanday?
43.	Amnistiya aktini qo'llash to'g'risidagi ariza berish tartibi qanday?
44.	Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituvni o'tkazish uchun asoslar qanday?
45.	Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki eshituvni o'tkazish muddatlari qanday?
46.	Sud majlisida raislik qiluvchi va uning vazifalari haqida fikr yuriting.
47.	Sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish uchun asoslar aniqlanganda sudning harakatlari.
48.	Taftish tayinlash asoslarini tahlil qiling.
49.	Narsa va hujjatlarni taqdim qilish tergov harakati mazmunini izohlang.
50.	"Miranda qoidasi" haqida bilgan ma'lumotlaringizni bayon qiling.
<b>Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar</b>	
1.	O'zbekiston Respublikasi sud tizimi haqida aytib bering.
2.	Sud tizimida bo'g'in tushunchasi va turlarini tushuntirib bering.
3.	Sud instansiyasi tushunchasi va turlarini muhokama qiling.
4.	Odil sudlov va uning demokratik prinsiplarini aytib bering.
5.	Odil sudlovning qonuniylik prinsipiga ta'rif bering.
6.	Milliy qonunchiligimizga ko'ra sudlov faoliyatini tartibga soluvchi qaysi hujjatlarni asosiy normativ-huquqiy hujjatlar deb hisoblaysiz?

7.	Konstitutsiyaviy nazorat tushunchasiga ta'rif bering.
8.	Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga qo'yiladigan talablarni ayting.
9.	Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlari muddatini ayting.
10.	Normativ-huquqiy hujjatlarning yuridik kuchini tushuntirib bering.
11.	Yuridik kuchi teng bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar o'zaro nomuvofiq bo'lsa, ularga amal qilishda qanday qoidalar qo'llaniladi.
12.	Konstitutsiyaviy nazorat vazifasini alohida tuzilma orqali amalga oshirish qanchalik darajada samarali va to'g'ri, deb o'ylaysiz?
13.	Konstitutsiyaviy sud sudyasining vakolatlarini to'xtatib turish asoslarini ayting.
14.	Qanday turdagi normativ-huquqiy hujjatlar konstitutsiyaviy nazorat obyektlari bo'lishi mumkin?
15.	Konstitutsiyaviy sudning vakolatlarini aytib bering.
16.	Konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish ishtirokchilarini sanab bering.
17.	Konstitutsiyaviy sud qarorlarining turlarini aytib bering.
18.	Konstitutsiyaviy sudning qarorini qabul qilish tartibini ayting.
19.	Konstitutsiyaviy sud qarorining yuridik kuchini tushuntiring.
20.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining tarkibi va tuzilishini aytib bering.
21.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining vakolatlariga to'xtalib o'ting.
22.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi faoliyatini muhokama qiling.
23.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorini qabul qilish tartibini tushuntirib bering.
24.	Sud ishlari yuritiladigan til haqida nimalarni bilasiz?



25.	Aybsizlik prezumpsiyasining mohiyatini aytib bering.
26.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi majlislarida kimlar ishtirok etishi mumkin?
27.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining o‘tkazilishi bilan bog‘liq muddatlarni aytib bering.
28.	Harbiy sudlar tarkibini aytib bering.
29.	Qanday turdagi ishlar harbiy sudlar sudloviga tegishli hisoblanadi?
30.	Sudyalikka nomzodlarga qo‘yilgan talablarni aytib bering.
31.	Xalq maslahatchilariga qo‘yilgan talablarni aytib bering.
32.	Qanday ixtisoslikdagi sudlarda sud tarkibida xalq maslahatchilari bo‘ladi?
33.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisi, rais o‘rinbosarlari, sudyalarining saylanish tartibini aytib bering.
34.	Sudyaning vakolat muddatlar haqida ma’lumot bering.
35.	Sudyaning qasamyod qabul qilish tartibini aytib bering.
36.	Sudyalik lavozimida bo‘lishning eng yuqori yoshi va uni uzaytirish tartibini aytib bering.
37.	Sudyaga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atish va uni qamoqqa olish tartibini tushuntirib bering.
38.	Sudyaning vakolatlarini to‘xtatishga sabab bo‘ladigan holatlarini aytib bering.
39.	Sudyalar malaka hay’atlari qanday vazifalarni amalga oshiradi?
40.	Sudyalar oliy kengashi tarkibi necha nafardan iborat?
41.	Sudyalik zahirasiqa kiritiladigan nomzodlarga qo‘yilgan talablarni aytib bering.
42.	Ma’muriy sudlar tomonidan ko‘rib chiqiladigan nizo turini aytib bering.
43.	Qanday shaxslar sudyalik zaxirasiga kiritilmaydi?

<b>44.</b>	Sudyalar oliy maktabining asosiy faoliyatlari nimalardan iborat?
<b>45.</b>	Sudyalar oliy kengashi a'zosining vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish asoslarini aytib bering.
<b>46.</b>	Oilaviy va mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar qanday turdagi sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi?
<b>47.</b>	Sudlar hamjamiyati organlarini sanab bering.
<b>48.</b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-son Farmoni mazmuni haqida qisqacha aytib bering.
<b>49.</b>	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4818-son qarori mazmuni haqida qisqacha aytib bering.
<b>50.</b>	O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy maktabining asosiy vazifasi nimalardan iboratligini aytib bering.